

339, 51  
X-922

Anvar XUDOYOROV,  
Behzodbek ABDURASULOV

# ZIYORAT TURIZMIDA LOGISTIKA



X-92

O'ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI  
ISLOM IQTISODIYOTI VA XALQARO MUNOSABATLAR  
FAKULTETI

ISLOM IQTISODIYOTI VA MOLIVASI, ZIYORAT TURIZMI  
KAFEDRASI

*Anvar XUDOYOROV, Behzodbek ABDURASULOV*

# ZIYORAT TURIZMIDA LOGISTIKA

*O'quv qo'llanma*

*54993-54994 (4 ta)*

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi Axborot-resurs markazi
Inv. № <u>54994</u>
20__ yil " __ " _____

Toshkent  
"MUMTOZ SO'Z"  
2019

UO'K: 821.512.133  
KBK 63.3(50')

**Mas'ul muharrir:**  
**Z.Sodiqov**

**Taqrizchilar:**  
**B.B.Valiyev,**  
**R.A.Sodiqova**

**63.3(50')**

Ziyorat turizmida logistika (o'quv qo'llanma) / Anvar Xudoyorov, Behzodbek Abdurasulov; mas'ul muharrir Sodiqov Z. – Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2019. – 132 b.

UO'K: 821.512.133  
KBK 63.3(50')

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi  
O'quv-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya qilingan  
(10-sonli bayonnoma 2019-yil 29-may)*

ISBN 978-9943-5562-9-3

© Anvar Xudoyorov, Behzodbek Abdurasulov, 2019  
© MUMTOZ SO'Z, 2019

**KIRISH**

Turistik resurslarning turlari ko'p bo'lib, ulardan turizmning qadimiy va faol turlaridan biri ziyorat turizmi hisoblanadi. Mazkur ziyorat turizmi tarmog'ining geografiyasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, dunyoning turli mamlakat, mintaqalarida ziyorat turistik resurslar yer shari bo'ylab harakat qiladi. Qadimdan diniy ziyorat turizmi rivojlanib kelgan. Hattoki bugungi kunda ham turizmning eng faol yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ma'lumki bugungi kunda yer yuzida har yili muntazam ravishda 200 milliondan ortiq turistlar aynan ziyorat maqsadida o'zlari uchun muqaddas hisoblangan dunyodagi turli ziyoratgoh maskanlariga borib, ziyorat turistik sayohatlarga chiqmoqdalar. Mazkur tarmoq ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak yiliga 150 million xristianlar, 45 million musulmonlar, 40 million buddistlar, 30 million induistlar va boshqa din vakillari ruhan poklanish, buyurilgan amallarni bajarish, muqaddas maskanlarni ziyorat qilish maqsadida sayohatga chiqadilar.

Mamlakatimiz madaniy va ziyorat turizmi industriyasi, logistikasi sohasida o'tkazilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, eng avvalo, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati olib borgan maqsadli yo'naltirilgan strategik turistik yagona siyosat, ayniqsa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning bu sohada chiqarilgan farmonlari hamda Respublika turistik tashkilotlarining olib borayotgan izlanishlari va amaliy faoliyatlari natijasida ziyorat turizmi industriyasi va logistikasi yanada rivojlanmoqda. Ko'p ukladli turizm industriyasi iqtisodiyoti vujudga keldi, har xil mulk shakliga asoslangan turistik firma va tashkilotlar shakllandi. Ziyorat turizmida logistik boshqaruvi samaradorligini oshirishning asosiy maqsadi belgilab olindi. Logistika ta'minot tizimidagi material resurslarni optimallashtirish, ishlab chiqarish bo'g'inlarining xom ashyo, materiallar, detallar, yarim tayyor mahsulotlarga bo'lgan talabini samarali qondirish va tayyor mahsulotni iste'molchilarga yetkazib berish uchun qilinadigan barcha harakatlarni hisobga olgan holda umumiy xarajatlarni kamaytirishdan iborat bo'lib unda xorijiy tajribalardan keng fodalaniymoqda.

O'zbekiston ziyorat turizmi sohasining rivojlanishida katta salohiyatga ega davlatlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Imom Al-Buxoriy majmuasini muhim ziyoratgohga aylantirish xalqaro ahamiyatga egadir. Musulmon olamida bu ziyoratgoh Makka va Madina shaharlaridan

keyin eng muhim va ahamiyatli ziyoratgohlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunning muhim masalalaridan biri ziyoratchi turistlarga infrazuzilmalarni shakllantirish bilan ularga qulay shart-sharoit yaratishdir. Xorijiy mamlakatlar fuqorolarining, ziyoratchi turistlarning mamlakatimiz ziyoratgohlariga va boshqa turistik obyektlariga ortiqcha qiyinchiliklarsiz kelib ketishlarini ta'minlash, samarali logistika tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha hukumatimiz tomonidan tegishli choralar ko'rilmogda. Bu ko'plab noyob tabiat obyektlarining, boy diniy ziyoratgohlarning, madaniy va tarixiy meroslarining mavjudligi bilan bog'liqdir. Davlatimiz, hukumatimiz tomonidan diniy qadriyatlarimizga, buyuk ajdodlarimiz qo'nim topgan maskanlarni qayta tiklash, obodonlashtirish, ta'mirlashga jiddiy e'tibor qaratilmogda. Vatanimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar o'zining samarali natijalarini ko'rsatmogda. Ayniqsa, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan "O'zbekistonda turizmni tezkor rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'grisidagi" farmoni sohaning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublika va hududiy ziyorat turizmi industriyasi va logistikasi sohasida nafaqat sifat, balki miqdoriy o'zgarishlar ham tez sur'atlar bilan sodir bo'lmogda. So'ngi 15 yillikni oladigan bo'lsak, xorij fuqorolarining Vatanimizga tashrifi 15,5 marotaba ortib, 2002-yildagi 442.1 ming kishidan 2017 yilda 2847,9 ming kishiga yetdi. O'zbekiston fuqorolarining chet elga tashrifi 2017-yilda 5182,5 ming kishini tashkil etdi, bu esa 2002 yilga nisbatan 6,5 barobar ko'p deganidir.

O'zbekiston ziyorat turizmi industriyasi va logistikasi sohasida bozor munosabatlariga mos bo'lgan boshqaruv tizimiga katta yo'l ochib berilmogda. Bozor munosabatlarining ziyorat turizmi industriyasiga, logistikasiga tobora chuqurroq mustahkamlanib borishi jarayonlardagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy o'zgarishlar hozirgi zamon amaliy iqtisodiy nazariyasini yanada ilmiy tahlil qilish va o'rganish zaruriyatiga sabab bo'lmogda. Ziyorat turizmi logistikasi, industriyasi rivojlanishining milliy, hududiy xususiyatlari, turlari va vazifalarini chuqurroq o'rganishga va bu sohada to'plangan tajribalarni xalqaro turizm industriyasi managementi, logistikasi nuqtai nazari bilan talqin qilib, umumlashtirishni, rivojlantirishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasida ziyorat turizmi industriyasini takomillashtirish, logistik xizmatlarni rivojlantirish, uning tarixi, rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini va o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish turizm sohasida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

## **1-bob. ZIYORAT TURIZMINING VUJUDGA KELISHI, RIVOJLANISHI VA JAHON IQTISODIYOTIDAGI AHAMIYATI.**

### **Reja:**

- 1.1 Ziyorat turizmining vujudga kelishi.
- 1.2 Ziyorat turizmining tarixi va evolyutsiyasi.
- 1.3 Turizm sohasining rivojlanishi bosqichlari va jahon iqtisodiyotidagi o'rni.

### ***1.1. Ziyorat turizmining vujudga kelishi.***

Dunyoda ziyorat turizmi harakatlari XV-XVI asrlarda sezilarli kengaygan. har bir hudud, eng avvalo, ziyoratning dunyoviy markazlari bilan mashhur bo'lgan. Ziyoratchining turli geografiyasini o'rganish uchun islom dini bilan O'rta Osiyo va musulmon mamlakatlar tarixi, xristian Yevropasi, xristianlik va boshqa dinlarni o'z ichiga oluvchi Shimoliy Amerika, an'anaviy dinlarni o'z ichiga oluvchi Lotin Amerikasi, islomni qabul qilgan Shimoliy Afrika, islom, xristianlik va an'anaviy dinlar mavjud G'arbiy va Sharqiy Afrika, buddizm, islom, xristianlik va induizmni o'z ichiga oluvchi Janubiy Sharqiy Osiyo, islom dinini bilan markaziy va sharqiy Osiyo davlatlari tarixi va bugungi kun turistik harakat jarayonlariga, ko'rsatkichlariga e'tibor qaratishimiz lozim bo'ladi.

Turistik resurslarning turlari ko'p bo'lib, ulardan biri turizmning qadimiy va faol turlaridan bu ziyorat turizmi hisoblanadi. Mazkur ziyorat turizmi tarmog'ining geografiyasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, dunyoning turli mamlakat, mintaqalarida ziyorat turistik resurslar turlicha yondashilgan, yo'lga qo'yilgan. Ma'lumki dunyo turli dinlarga e'tiqod qiladi. Qadimdan diniy ziyorat turizmi rivojlanib kelgan. Hattoki bugungi kunda ham turizmning eng faol yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda yer yuzida har yili 200 milliondan ortiq turistlar aynan ziyorat maqsadida dunyodagi turli o'zlari uchun muqaddas hisoblangan ziyoratgoh maskanlariga borib, diniy turistik sayohatlarga chiqmogdalar. Mazkur tarmoq ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, yiliga 150 million xristianlar, 45 million musulmonlar, 40 million buddistlar, 30 million induistlar va boshqa din vakillari diniy ziyorat maqsadida sayohatga chiqishadi.

Diniy ziyorat turizmining shakllanishi uzoq asrlarga borib taqaladi. Ilk sayohatlar to'grisidagi ma'lumotlar antik davrga taalluqli bo'lib, eng mashhuri Ollada Delfada joylashgan va butun Gretsiya uchun ahamiyatiga ega bo'lgan. Ko'plab sayyohlar bu yerga ziyorat uchun qatnashgan.

Ziyorat turizmi iqtisodiyotning o'ziga xos sohalaridan biri hisoblanadi. Turizm qadimgi davlatlardan bo'lgan Rim va Yunon Imperiyasi davrida sezilarli darajada rivojlangan. Bu davrlarda insonlar o'ziga yaqin va uzoq manzillarga, ziyoratgohlarga va yurtlarga sayohat qilish, o'zga xalqlar hayoti bilan tanishish, bilish, o'rganish, hordiq va dam olish, davolanish, ziyorat qilish maqsadida sayohatga chiqqanlar. Ularning faoliyati esa sayohatchilik deb nom olgan.

Sayohat deganda biz insonlarni o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini ma'lum bir yo'nalish, marshrut bo'yicha amalga oshirishlarini tushunamiz. Qadim zamonlardan buyon dunyo sayohatchiligi davom etgan va o'z taraqqiy bosqichlariga ega.

Bilamizki, O'zbekiston turistik resurslarning boyligi bilan ajralib turadi. Markaziy Osiyoda, xususan, vatanimizda ham aziz avliyolar yashab, dafn etilgan qadamjolar, ziyorat maskanlari ko'plab mavjud bo'lib, turistlarni o'ziga jalb etadi. Ko'pgina avliyolarning dafn etilgan joylari va qabrlari qayta ta'mirlanib, asl holatiga qaytmoqda. Jahonga tanilgan allomalarimizdan Bahovuddin Naqshbandiy, G'ijdivoniy, Imom al-Buxoriy, Maxdumi A'zam, Imom al-Moturidiy, Hakim at-Termiziy, Zangiota, Shayx Hovand Tohur kabi ko'plab aziz avliyolar, imomlar maqbaralari musulmon ahli ziyorat qiladigan va ma'naviy oziqa oladigan maskanlarga aylantirildi. Ta'kidlash joizki, ayniqsa, Imom Al-Buxoriy majmuasini muhim ziyoratgohga aylantirish xalqaro ahamiyatga egadir. Musulmon olamida bu ziyoratgoh muhim va ahamiyatli ziyoratgoh hisoblanadi. Bugungi kunning muhim masalalaridan biri ziyoratchi turistlarga infratuzilmalarni shakllantirish bilan ularga qulay shart-sharoit yaratishdir. Xorijiy mamlakatlar fuqorolarining, ziyoratchi turistlarning mamlakatimiz ziyoratgohlariga va boshqa turistik obyektlariga ortiqcha qiyinchiliklarsiz kelib ketishlarini ta'minlash, samarali reklama tizimini yo'lga qo'yish hukumatimiz tomonidan qo'llab quvvatlanmoqda.

Mamlakatimizda, shaharlarimizda, tuman va qishloqlarimizda ziyorat turizmi bilan bog'liq obyektlarda, tarixiy binolar hamda zamonaviy bino komplekslarida infratuzilmalarni, ziyorat turizmi logistikasini yanada rivojlantirish davr talabidir. Davlatimiz, hukumatimiz tomoni-

dan diniy qadriyatlarimizga, buyuk ajdodlarimiz qo'nim topgan maskanlarni qayta tiklash, obodonlashtirish, ta'mirlashga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Vatanimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar o'zining samarali natijalarini ko'rsatmoqda. Ayniqsa Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan "O'zbekistonda turizmni tezkor rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'grisida"gi va boshqa farmonlari sohaning rivojlanishiga katta yordam beradi.

### *1.2. Ziyorat turizmining tarixi va evolyutsiyasi*

Ilk qadimiy davrlardan boshlab insonlar sayohat maqsadida yakka yoki birlashgan individumlar, guruhlar yoki bir butun ekspeditsiyalar tarkibida o'nlab, yuzlab, minglab bir manzildan, yurtdan yoki mamlakatdan boshqa joylarga o'tganlar, kunlab, haftalab, oylab, yillab piyoda, otda, tuyada, filda va boshqa xil vositalarida harakat qilganlar.

Ayrim xalqlar uchun yurtlarda kezib yurish muhim istiqomat qilish joylaridagi tabiiy iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda o'nlab asrlar davomida vujudga kelgan yashash tarziga aylangan. Bularga Beunjilar (Pokiston, Afg'oniston), badaviylar, lo'lilar, qochqinchilar va boshqa ko'chmanchi xalqlar qiradi. Ular dunyoni turli sabablarga ko'ra, asosan, kun ko'rishning moddiy vositalariga ega bo'lish yoki ish topish maqsadida kezganlar. Bunday kezishdan maqsad ham iqtisodiy, ham ijtimoiy, ham siyosiy manfaatlar bo'lgan.

Ammo, ko'p asrlik tarix silsilalarida insonlar o'zga joylar, manzillar, yurtlarni ko'rish, tanishish, bilish, o'rganish, savdo-sotiq, ziyorat qilish, yangi-yangi yerlarni sayohat maqsadida kashf etish, yangi harakat yo'llarini ochish, moddiy boyliklar zahiralarga ega bo'lish uchun intilganlar. Bunday harakatlar sayohat shaklida amalga oshirilgan.

Lekin yaqin va eng uzoq joylar, kontinentlarni tom ma'noda kezgan, o'sha davrda aqlga sig'maydigan sayohat qilgan mashhur kishilar bo'lgan. Masalan, eramizdan oldin yashagan geograf va tadqiqotchi olim Piffiy Fransiyaning Marsel shahridan chiqqan bo'lib, Yevropa bo'ylab sayohatga borgan. U "Okean to'g'risida" nomli asar ham yozib qoldirgan.

Mashhur sayyoh Marko Polo (1254–1324) 1271–1295 yillarda Xitoyga kamdan-kam uchraydigan sayohatda bo'ldi va 17 yil yashab, o'zining "Kitob" nomli asarini yozib, Xitoy to'g'risida noyob ma'lumotlar qoldirdi. Keyinchalik Ibn Battuta (1304–1368) butun Sharq olamini 21 yil davomida aylanib chiqqan. Shimoliy Afrika, Hindiston va